




# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-iyun)

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga sog'lom raqobat muhitida sifatli va raqobatbardosh hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, o'z vaqtida xaridorlarga yetkazilishida bir qator qulayliklar tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Shuningdek, korxona va tashkilotlarga davlatimiz tomonidan bir qator imtiyoz va qulayliklar yaratib berilmoqda, xususan, davlat soliqlarining ma'lum bir muddatga uzaytirilishi va belgilangan vaqtda qisman bo'lib to'lanishi, eksport salohiyatini oshirish bo'yicha ham qulaylik va yengilliklar yaratilishi savdo aloqalarining o'sishiga xizmat qiladi.

2023- yil yanvar-iyun oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 2767,7 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 196,6 mln. AQSh dollariga yoki 7,7 %ga ko'paygan.






# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

TSAda eksport hajmi 941,7 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati – 93,5 %) va import hajmi 1826,0 mln. AQSh dollariga (o'zgarish sur'ati – 116,7 %) yetdi. Hisobot davrida -884,3 mln. AQSh dollari qiymatida salbiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

## TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)



## TASHQI SAVDO AYLANMASINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2022- yil yanvar-iyunga nisbatan, %da)

2023- yil yanvar-iyun

- Tashqi savdo aylanmasi
- Eksport
- Import





# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ULUSHI YUQORI BO'LGAN DAVLATLAR (2023- yil yanvar-iyun, mln. AQSh dollar)


Davlatlar nomlari	TSA	Eksport	Import	Ulush, %da
Xitoy	640,7	210,5	430,2	23,1
Rossiya Federatsiyasi	572,5	206,3	366,2	20,7
Qozog'iston	473,5	52,1	421,4	17,1
Turkiya	251,9	170,0	81,9	9,1
Braziliya	111,6	0,0	111,6	4,0
Germaniya	65,3	4,1	61,2	2,4
Italiya	56,4	12,3	44,1	2,0
Qirg'iz Respublikasi	55,2	41,0	14,2	2,0
Tojikiston	51,0	21,8	29,2	1,8
Belorussiya	49,1	10,9	38,2	1,8
AQSH	27,9	23,1	4,8	1,0
Koreya Respublikasi	23,5	4,4	19,1	0,8
Litva	23,0	11,1	11,9	0,8
Niderlandiya	15,5	10,4	5,1	0,6
Eron	15,3	2,3	13,0	0,6
Hindiston	13,5	1,4	12,1	0,5
Ukraina	10,4	4,5	5,9	0,4
Daniya	2,5	0,0	2,5	0,1

## TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 40,6 % ni hamda o'zgarish sur'ati 2022- yilning shu davriga nisbatan 106,5 % ni tashkil etdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023- yilning yanvar-iyun oylarida 59,4 % ni (2022- yilning ushbu davrida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 64,3 % ni tashkil qilgan), o'tgan yilning mos davriga nisbatan 86,4 % ni tashkil etdi.

### TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING ULUSHHLARI (2023- yil yanvar-iyun, % hisobida)






# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJUY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (2023- yil yanvar-iyun, mln. AQSh dollar)

MDH davlatlaridan Tojikiston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi bilan faol tashqi savdo balansi hamda boshqa davlatlardan (qo'shni davlatlardan tashqari) esa Turkiya, Singapur, Niderlandiya davlatlari bilan faol tashqi savdo balansi kuzatilganini ko'rish mumkin.

TSAda eng yuqori ulush Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Qozog'iston va Turkiya davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.






# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## TOSHKENT VILOYATINING EKSPORTI (2023- yil yanvar-iyun)

Hozirga kunda davlat tomonidan eksportyorlarni qo'llab-quvvatlash va eksportbop mahsulotlarni yaratishda imtiyozlar hamda iqtisodiy ko'mak berilmoqda.

2023-yil yanvar-iyun oyi yakuni bilan 941,7 mln. AQSh dollari qiymatdagi (2022- yilning shu davriga nisbatan 93,5 %) tovar va xizmatlar eksport qilindi. Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,7 %ni tashkil etib, bular asosan sanoat tovarlari (65,1 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (11,1 %), turli xil tayyor buyumlar (13,3 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (2,7 %), kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (3,9 %), shuningdek, mashina va transport asbob-uskunalarini (2,7 %) guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)
- Hayvon va o'simliklar moylari, yog'lar va mumlar
- Sanoat tovarlari
- Turli xil tayyor buyumlar
- Ichimliklar va tamaki
- Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabilar
- Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar
- Mashinalar va transport asbob-uskunalar
- Xizmatlar



# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-iyun)

Tarkibi	Mln. AQSh dollarari			Umumiylajmga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	941,7	382,4	559,3	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	104,5	59,6	44,9	16,5	16,8	16,1
Ichimliklar va tamaki	4,2	3,9	0,3	0,2	0,5	0,1
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	25,3	8,7	16,6	16,2	27,6	5,5
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar	3,5	1,0	2,5	8,3	16,8	0,4
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	0,4	0,1	0,3	2,4	3,9	0,9
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	36,8	31,4	5,4	9,6	5,3	13,7
Sanoat tovarlari	613,3	135,7	477,6	15,8	20,3	11,7
Mashinalar va transport asbob- uskunalarini	25,6	21,1	4,5	28,8	8,0	48,1
Turli xil tayyor buyumlar	125,4	119,4	5,5	2,2	0,8	3,5
Xizmatlar	2,7	1,0	1,7	0,0	0,0	0,0





# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING O'SISH SUR'ATLARI (2023- yil yanvar-iyun)

2023- yilning yanvar-iyun oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, 2022- yilning mos davriga nisbatan, nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari), mineral yoqilg'i yog'lash moylari va shu kabi materiallar, ichimliklar va tamaki, kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar, sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlarda o'sish kuzatildi.

Tarkibi	2022- yilning shu davriga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami</b>	<b>93,5</b>	<b>106,5</b>	<b>86,4</b>
shu jumladan:			
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	114,8	131,8	98,1
Ichimliklar va tamaki	2,5 m.	2,4 m.	4,7 m.
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	70,6	45,1	100,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	2,4 m.	2,1 m.	2,5 m.
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	30,7	26,7	31,4
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	103,3	118,5	59,1
Sanoat tovarlari	85,9	88,5	85,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalarini	91,2	106,2	55,0
Turli xil tayyor buyumlar	132,4	131,2	165,0
Xizmatlar	80,8	80,4	81,1

# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


## VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-iyun)

Asosiy hamkor  
davlatlar

Ulushi 76,3 %

Boshqa hamkor  
davlatlar

Ulushi 23,7 %



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Qozog'izton, Afg'oniston, Tojikiston va Qirg'iz Respublikasi hamkor davlatlaridan jami eksport hajmi 718,8 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy eksport hajmining 76,3 %ini tashkil qiladi.



# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismidan biri bo‘lgan 73,2 mln. dollar qiymatga ega 135,1 ming tonnadan ziyod qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilik mahsulotlari eksport qilingan. Bu 2022- yilning shu davriga nisbatan qiymatda – 37,3 %ga ko‘paygan, naturada – 53,9 %ga ko‘paygan, Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 44,0 mln. AQSh dollariga teng 104,2 ming tonnadan ortiq sabzavot (qiymatda 84,1 %ga ko‘paygan), shuningdek 21,0 mln. AQSh dollari qiymatidagi 19,4 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi (qiymatda o‘zgarish sur’ati 72,2 %ga ko‘paygan).

### 2023- yil yanvar-iyun, mln. AQSh dollari



Meva va  
rezavorlar  
19,4 ming tonna  
21,0 mln.  
AQSH dollari

Uzum  
5,0 ming tonna  
5,3 mln.  
AQSH dollari

Yeryon-g‘oqlar  
0,1 ming tonna  
0,3 mln. AQSH  
dollari

Sabzavotlar  
104,2 ming tonna  
44,0 mln. AQSH  
dollari

Mamlakatimizda eksport qilinayotgan qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilik mahsulotlar sifati va hajmi yanada ortib bormoqda. Jumladan, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida meva-sabzavotlarning eksport hajmi 123,6 mln. AQSH dollariga teng bo‘lib, jami eksport hajmining 13,1 %ini tashkil qiladi.




# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI (2023- yil yanvar-iyun)

Mamlakatimizda faoliyat yuritmayotgan korxona va tashkilotlar holati o‘rganilib, xususan ishlab chiqarish korxonalariga import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishda davlatimiz tomonidan moddiy va moliyaviy yordamlar berilmoqda.

Joriy yilning yanvar-iyun oylari mobaynida import hajmi 1826,0 mln. AQSh dollarni (2022- yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 16,7 %) tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalar (28,8 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (16,5 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari) (16,2 %), sanoat tovarlari (15,8 %) hamda kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (9,6 %) hisobiga to‘g‘ri keldi.





# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA XSST BO‘YICHA IMPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-iyun)

Tarkibi	Mln. AQSh dollarri			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami import</b>	<b>1826,0</b>	<b>880,6</b>	<b>945,4</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	300,5	148,2	152,3	16,5	16,8	16,1
Ichimliklar va tamaki	3,1	2,9	0,2	0,2	0,3	0,02
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	295,1	243,3	51,8	16,2	27,6	5,5
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar	151,1	147,7	3,4	8,3	16,8	0,4
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	43	34,6	8,4	2,4	3,9	0,9
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	175,9	46,8	129,1	9,6	5,3	13,7
Sanoat tovarlari	289,2	178,5	110,7	15,7	20,4	11,7
Mashinalar va transport asbob-uskulalari	525	70,2	454,8	28,8	8,0	48,1
Turli xil tayyor buyumlar	40,1	6,8	33,3	2,2	0,8	3,5
Boshqa tovarlar	0,6	0,4	0,2	0,0	0,0	0,0
Xizmatlar	2,4	1,2	1,2	0,1	0,1	0,1



## TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


Importning eng katta ulushi nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari) (27,6 %) va sanoat tovarlari (20,3 %) MDH mamlakatlariiga to‘g‘ri kelsa, boshqa xorijiy mamlakatlardan esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalar (48,1 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (16,1 %) hissasiga to‘g‘ri keladi.

### **MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTINING O‘ZGARISH SUR’ATLARI (2023- yil yanvar-iyun, % hisobida )**

Tarkibi	2022- yilning shu davriga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami</b>	<b>116,7</b>	<b>105,8</b>	<b>129,2</b>
shujumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	93,4	96,2	90,9
Ichimliklar va tamaki	156,9	147,0	20,0 m.
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	101,6	89,4	2,8 m.
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar	3,0 m.	2,9 m.	3,4 m.
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	138,2	113,7	12,5 m.
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	101,6	92,7	105,2
Sanoat tovarlari	89,7	76,7	123,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	169,8	2,5 m.	161,7
Turli xil tayyor buyumlar	70,0	68,4	70,4
Boshqa tovarlar	33,1	21,2	66,8 m.
Xizmatlar	53,5	142,5	32,9

# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar- iyun)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Qozog'izton, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Braziliya, Turkiya, Germaniya va Belorussiya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 1510,8 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy import hajmining 82,9 %ini tashkil qiladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi bo'limi  
Tel.: (71) 202-86-59**